

TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN LEKSIK MUAMMOLAR

Xamidova Nargiza Yusufovna

O'zDJTU Roman-german tillari
tarjimashunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi
nargiza7480@gmail.com

***Annotatsiya:** Tarjima – bu lisoniy, psixologik, madaniy va adabiy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon. Tarjimaning turli shakllari tegishli ilmiy usullar yordamida o'rganiladi. Hozirgi paytgacha tilshunoslik sohasida tarjima nazariyasiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Lisoniy tarjima nazariyasi esa turli tillarda so'zlashuvchi insonlar o'rtasida muloqot o'rnatish imkonini beruvchi nutq shakli bilan shug'ullanadi. Ushbu nazariyaning asoslari makrolingvistika, psixolingvistika, sociolingvistika va matn tilshunosligi kabi fanlar orqali o'rganiladi. Mazkur maqolada tarjima va uning leksik jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tarjima, tarjima muammolari, fonetika, leksika, sinxron tarjima, badiiy tarjima.*

***Аннотация:** Перевод является сложным явлением, включающим в себя лингвистические, психологические, культурные и литературные факторы. Различные аспекты перевода исследуются с использованием соответствующих научных методов. В области теории перевода в рамках языкознания было проведено множество исследований. Лингвистическая теория перевода фокусируется на том типе перевода, который представляет собой форму общения между людьми, говорящими на разных языках. Основы этой теории изучаются такими направлениями, как макролингвистика, психоллингвистика, социоллингвистика и лингвистика текста. В данной статье рассматриваются лексические аспекты перевода.*

***Ключевые слова:** перевод, проблемы перевода, фонетика, лексика, синхронный перевод, художественный перевод.*

***Annotation:** Translation is a multifaceted phenomenon that encompasses linguistic, psychological, cultural, and literary dimensions. Different aspects of translation are examined through suitable scientific methods. To date, considerable research has been conducted on translation theory within the framework of linguistics. Linguistic translation theory focuses on the type of translation that facilitates communication between individuals who speak different languages. The fundamentals of this theory are explored through the fields of macrolinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, and text linguistics. This article addresses the lexical aspects of translation and its processes.*

***Keywords:** translation, translation problems, phonetics, lexicon, simultaneous translation, literary translation.*

Tarjima jarayoni hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum. Zamonaviy tarjimashunoslik sohasiga ko'plab o'zbek tarjimonlari va lingvistlar, ya'ni Xurshid Davron, Muhammad Ali, Ibrohim G'afurov, Qudratxon Musayev, Abduzuhur Abduazizov, Najmiddin Komilovlar o'z hissalarini qo'shmoqda. Bugungi kunda tarjimaga bo'lgan talabning ortishi malakali tarjimonlarga ehtiyojni yanada oshirishga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda tashkil etilgan tarjima maktablari ham alohida e'tirofqa loyiqdir. Masalan, professor G'aybulla Salomovning dastlabki tadqiqotlari Samarqand davlat universitetida tahsil olayotgan paytlarida boshlangan edi. Uning "Maqol, matal va idiomalar tarjimasi", "Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari" va "Rus tilidan o'zbek tiliga maqol-matallar tarjimasi" kabi risolalari nashr etilgan. Yuqorida sanab o'tilgan asarlarda tarjima, uning dolzarb muammolari va badiiy tarjimaning xususiyatlari haqida mulohazalar bildirilgan.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarining o'quv bazasini rivojlantirish maqsadida turli xil darsliklar, o'quv qo'llanmalar va lug'atlar chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shavkat Bo'tayev va Abbas Irisqulov tomonidan tuzilgan 70 ming so'z va iborani o'z ichiga olgan inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at, Xudoyqul Ibragimov, Ahmadali Mamadaliyev, Ulug'bek Mansurov tomonidan tuzilgan 28 ming so'z va iborani o'z ichiga olgan fransuzcha-o'zbekcha lug'at, shuningdek A. Ismoilov, O. Mo'minov, N. Qambarov va M. Dadamirzayeva kabi olimlarning darsliklari talabalar uchun xorijiy tillarni o'rganish va tarjimonlik faoliyatini rivojlantirishda muhim manba bo'lmoqda.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da tarjima, bir tildan ikkinchi tilga o'girilgan matn sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rif, «tarjima» so'zining faqat natija emas, balki muayyan faoliyat jarayonini ifodalashidan dalolat beradi. Har bir natija ma'lum bir jarayondan kelib chiqadi va shuning uchun «tarjima» so'zining ma'nosi «o'girish jarayoni»ni ham o'z ichiga oladi. Tarjima bilan bog'liq fanlarning asosiy maqsadi bitta tilda yaratilgan matnni boshqa tilga o'girish jarayonini o'rganishdir, shuningdek, to'plangan bilim va ko'nikmalarning sifatini tarjima natijalari orqali baholashdir.

G'aybulla Salomovning fikricha, tarjima atamasi forscha «tarzabon» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z «chiroyli so'zlovchi yoki notiq» degan ma'noni anglatadi. Arab tilidan kelib chiqqan bu so'z «tarjumon» shaklida bo'lgan va undan «tarjimon», «tarjima» so'zlari paydo bo'lgan. Tarjima tillararo muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi va tarjimon asl manbaning kommunikativ qiymatini saqlab turadigan matn orqali turli tillarda gaplashuvchi insonlar o'rtasida axborot almashinish imkoniyatini yaratadi.

XX asrning ikkinchi yarmida badiiy tarjimaga qo'shimcha ravishda ilmiy tarjima, mashina tarjimasi va sinxron tarjima kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Shuningdek, tarjima asarlarining sifatini aniqlovchi tarjima nazariyasi fani yuzaga keldi.

Mustaqillik davrida badiiy ijodning har bir jabhasi kabi tarjimaga ham keng imkoniyatlar yaratildi va bizning tarjimonlarimiz jahonga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishdi. O'tgan yigirma besh yil ichida tasviriy san'at, musiqa va qo'shiqlar borasidagi ijodimiz bilan jahon maydoniga chiqdik.

Tarjima nuqtai nazaridan leksikologik va frazeologik tahlilni leksik tahlil deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Chunki leksik tushunchasi tor ma'noda faqatgina so'zlarni

ifodalaydi; keng ma'noda esa bu nafaqat so'zlarni, balki ularning birikmalarini — xoh u turg'un yoki erkin — frazeologizmlarni, maqol va matallarni ham qamrab olishi mumkin.

Tarjimaning leksik muammolari deganda, biz nafaqat so'zlarni (masalan, umumiy iste'moldagi so'zlar, terminlar, poetik so'zlar, varvarizmlar, xorijdan o'zlashgan so'zlar, neologizmlar, arxaizmlar, tarixiy so'zlar, slenglar, jargonlar, professional so'zlar, sheva so'zlari va vulgar so'zlar) balki frazeologik birliklarni (turg'un birikmalar, idiomalar va paremiyalar — aforizmlar, maqol va matallar) ham nazarda tutamiz.

Qisqa qilib aytganda, fonema, morfema, so'z va gaplardan iborat matn milliy xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu matnning mazmuni ma'lum bir millat vakillari tomonidan yozilgan bo'lib, ularning turmush tarzi, urf-odatlar va an'analarini aks ettiradi. Matnda qo'llaniladigan bayon qilish usuli har bir millat uchun farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tarjimaning tarkibiy tuzilishi nuqtai nazaridan asl manba matnning quyidagi jihatlariga e'tibor berish zarur:

- a) bayon qilish ketma-ketligi;
- b) matndagi alohida bo'laklarning tartibi saqlanishi.

Ushbu talablarning maqsadi tarjimadagi har bir elementning asl nusxadagi mos qismiga iloji boricha yaqinligini ta'minlashdir. Tarkibiy o'xshashlik asliyatdagi ma'noni aniqroq ko'chirish uchun muhimdir. Tarjimon faqat to'g'ridan-to'g'ri tarjima imkoni bo'lmagan hollarda bayon qilish tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yishi mumkin. Tarkibiy o'xshashlik orqali asl manba matnida mavjud bo'lgan yoki yo'q bo'lgan elementlarni aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tarkibiy o'xshashlik asliyat matnining eng kichik qismlarini ham tarjimadan tushirib qoldirishga yo'l qo'ymaydi.

Tarjima jarayonidagi eng muhim jihat bu mazmun jihatdan o'xshashlikdir; ya'ni tarjima matni asliyat bilan bir xil mazmunni ifodalashi kerak. Manba matndan uzatilgan ma'lumot bilan tarjima matni orasida farq mavjudligi to'liq ma'lumot almashish imkoniyatini cheklaydi. Manba va tarjima matnlari orasidagi semantik bir xillik ma'no muqobillarining turli darajalariga asoslanadi. Tarjimon odatda asl manba matnga yaqin birliklardan foydalanishga intiladi. Chunki tarjima amaliyoti asliyatni boshqa tilga ko'chirish jarayoni bilan bog'liqdir va bunga faqat malakali tarjimon erisha oladi. Shoh tarjima asarlar esa buyuk so'z san'atkorlari sa'y-harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dolimov Sh. Tarjima san'ati va mahorati. – T.: 2009.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, O'qituvchi, 1978.
3. Rahimov N. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –T.: 2016.